

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

YUSUPOV MURODALI SUNNATOVICH

**QISHLOQ AHOLISINING TIBBIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH
VA RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY MASALALARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Yusupov Murodali Sunnatovich

Qishloq aholisining tibbiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning
ijtimoiy-falsafiy masalalari..... 3

Юсупов Муродали Суннатович

Социально-философские проблемы формирования и развития
медицинской культуры сельского населения..... 23

Yusupov Murodali Sunnatovich

Socio-philosophical problems of the formation and development of medical
culture of the rural population 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 47

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

YUSUPOV MURODALI SUNNATOVICH

**QISHLOQ AHOLISINING TIBBIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH
VA RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-FALSAFIY MASALALARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.4.PhD/Fal401 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yaxshilikov Jo'raboy Yaxshilikovich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xajiyeva Maksuda Sultanovna
falsafa fanlari doktori, professor

Abilov O'ral Murodovich
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03.30.12.2019.F.02.02 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil "25" oktabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (0366) 239-11-40; e-mail: rektor@samdu.uz Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 111-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (0366) 239-11-40.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "3" oktabr kuni tarqatildi.
(2023-yil "3" oktabr dagi 111 raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.Sh.Negmatova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

X.A.Djurakulov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.R.Samadov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kechayotgan bugungi global o'zgarishlar shuni ko'rsatmoqdaki, dunyoda yuzaga kelgan pandemiya, geosiyosiy jarayonlar, sanoat texnologiyalaridan nooqilona foydalanish, tabiatda kimyoviy zararlar koeffitsiyentining toboro oshib ketishi, oziq-ovqat mahsulotlari va toza ichimlik suvi ehtiyojining ortib borishi bilan bog'liq omillar bevosita aholi salomatligiga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirmoqda. Ayniqsa, pandemiya davrida aholi, xususan, qishloq aholisining tibbiy madaniyatini rivojlantirish zarurati ustuvor bo'lib, ularning yaxshi hayot kechirishiga bo'lgan munosabatlarini ham tubdan o'zgartirib yubormoqda. Shu nuqtayi nazardan, qishloq aholisining tibbiy madaniyatini oshirish yo'llari, rivojlantirish mexanizmlari, usul va vositalarini aniqlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Jahon ilm-fanida qishloq aholisining farovon turmush tarzi va tibbiy madaniyat bilan bog'liq ilmiy-nazariy, amaliy-fundamental tadqiqotlar turli xil yo'nalishlarda olib borilmoqda. Xususan, qishloq aholisining farovon turmush darajasini shakllantirish, sog'lom turmush tarzi, tibbiy etikaning sog'liqni saqlash tizimidagi o'rni, qishloqlarda moddiy va ma'naviy omillarni rivojlantirishning tarixiy zarurati kabi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq qishloq aholisi salomatligiga konstruktiv ta'sir etuvchi omillarni, shu bilan birga, sog'lom turmush tarzini shakllantirish mexanizmlarini va aholining tibbiy savodxonligini oshirish tamoyillari hamda mezonlarini yangicha dunyoqarashga tayanib, zamon talablari asosida falsafiy tadqiq qilish obyektiv zaruratga aylanmoqda.

Mamlakatimizda bugungi kunda aholi salomatligini tiklash, ularning tibbiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. "Xalqimiz tibbiy madaniyati yuksalib, eng so'nggi usul va rusumdagi tibbiy xizmatdan bahramand bo'lishni istaydi. Erishilgan yutuqlarga mahliyo bo'lib o'tirish – taraqqiyot yo'lidagi eng katta g'ovdir. Tizimni mutlaqo o'zgartirish – davr talabi"¹. Shu ma'noda aholi, ayniqsa, qishloq aholisining tibbiy madaniyatini yuksaltirish mexanizmlari hamda ijtimoiy qonuniyatlarini uyg'unlashtirish ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Shu o'rinda bu vazifalarni bajarishda qishloq aholisining tibbiy madaniyati va farovon turmush darajasini oshirish borasidagi amaliy ishlarning konstruktiv yechimini topish har qachongidan muhimdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-noyabrdagi PF-4513-son "Reproduktiv yoshdagi ayollar, homiladorlar va bolalarga ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirish va ko'lamini yanada kengaytirish to'g'risida", 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonlari, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-

¹Мирзиёев Ш.М. Тиббиёт соҳасини тубдан ислоҳ қилиш – кечиктириб бўлмайдиган энг муҳим вазифамиздир // Миллий тараққиёт йўлимизни катъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд.–Т.: "Ўзбекистон", НМИУ, 2017. – Б.185, 187.

4038-son “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Qarori, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-martdagi O‘RQ-528-son “Aholining sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi to‘g‘risida” va 2019-yil 11-martdagi O‘RQ-528-son “Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to‘g‘risida”gi qonunlari hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tibbiy madaniyatni shakllantirish va yuksaltirish masalasi doimo davlat rahbarlari, tibbiyotshunos mutaxassislar, faylasuflarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Bu masalani o‘rganishda xorijlik olim AQSH “New York Times Good Health” jurnalining sobiq bosh muharriri Lynn Payer (Linn Payer) – tibbiyotda sodir bo‘layotgan muammolarning yechimini ko‘proq xalqlarning madaniyati va tibbiy davolanish usullarini qiyosiy tahlil qilishdan qidirishga qaratgan bo‘lsa¹, AQSH Arizona shtati universitetining ijtimoiy o‘zgarishlar va odam evolyutsiyasi maktabining xodimi Michael Winkelman (Maykl Vinkelman) tibbiyot ekologiyasi va transmadaniy psixiatriya, klinik antropologiyaning kelgusidagi istiqbollari haqida bir qator ilg‘or g‘oyalarni ilgari suradi². Bolgariyaning Polessk davlat universitetining olimlari T.Popov va G.Garovlar mamlakat aholisining 62,1% tibbiy madaniyat jihatdan past darajada savodxon ekanligini qayd etgan holda, ularning tibbiy savodxonligini oshirish zarurligini ta’kidlaydilar³.

Muammoning ayrim masalalari MDH olimlaridan, xususan, I.M.Sechenov nomidagi Moskva tibbiyot akademiyasi (MMA) ning yetakchi olimlari V.N.Moiseyev⁴, Y.M.Xrustalev⁵, G.I.Tsaregorodsev, V.N.Sapero⁶, N.N.Sedova va undan tashqari, S.G.Axmerova, O.M.Vovchenko, L.A.Gayazova, V.A.Geodakyan, A.Zaxarov, T.A.Gurkolar tomonidan o‘rganilgan. Ular falsafiy fanlarning tibbiyot uchun metodologik ahamiyat kasb etishini, tibbiyot etikaning sog‘liqni saqlash tizimidagi o‘rnini ilmiy-amaliy asosda yoritish bilan birga,

¹Lynn Payer. Medicine and Culture («Тиббиёт ва маданият») //www.structuralviolence.org/1156/medicine-and-culture.

²Michael Winkelman. Culture and Health: Applying Medical Anthropology(“Маданият ва саломатлик: тиббиёт антропологиясини қўллаш” // www.wiley.com/enus/Culture+and+Health%3A+Applying+Medical+Anthropology-p-9780470283554

³Попов Т.,Гаров С. Исследование медицинской культуры населения Болгарии// Здоровье для всех: материалы VII Международной научно–практической конференции, УО “Полесский государственный университет”, г. Пинск, 18 – 19 мая 2017 г. / Министерство образования Республики Беларусь [и др.]; редкол.: К.К. Шебеко [и др.]. – Пинск: ПолесГУ, 2017. – С. 290-295.

⁴Моисеев В.Н. Философия науки. Философия биологии и медицины. – М.: ГЭОТАР–Медиа,2008.–560с.,

⁵Хрусталеv Ю.М., Царегородцев Г.И. Философия науки и медицины. –М.: ГЭОТАР –Медиа, 2008.–512с.,

⁶Сапёров В.Н. Медицинская этика. – М.: Издательство БИНОМ, 2014. –232 с., Седова Н.Н. Философия для медицинских специальностей. – М.: КноРус, 2018- 318 с.

aholining tibbiy madaniyatini takomillashtirishga oid muhim xulosalar chiqarib, taklif va tavsiyalar bergan. Bu tavsiyalar biz uchun ilmiy metodologik ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda A.Usmonxo‘jayev, R.Salixodjayeva, Sh.Rizayev, O‘.Abilov, M.To‘raxonovlar tomonidan yozilgan “Tibbiyot xodimlari ma’naviyati” nomli kitobda ma’naviyat, buyuk allomalarning hayoti va ijodi, ularning tibbiy falsafiy qarashlari, tibbiyot xodimining burchi, odobi, tashqi qiyofasi, bioetika, valeologiya, tibbiyot va psixologiya, oila va jinsiy hayot, emotsiya, stress haqida qarashlari keng yoritib berilgan¹. Shular bilan bir qatorda, O.Musurmonova, A.Muxitdinov, P.Xudaybergenova, S.Safayeva, S.Ro‘zimurodov, Z.Karimovlar² tomonidan aholining reproduktiv salomatligi, sog‘lom turmush tarzi, jismoniy komillik masalalari kengroq o‘rganilgan. Biroq mamlakatimiz fuqarolarining, xususan, qishloq aholisining tibbiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish masalasini o‘rganishga oid kitob va ilmiy ishlarning tahlili mamlakatimizda, garchand tibbiy madaniyat haqida ko‘p gapirilsa-da, bu muammoni ilmiy jihatdan o‘rganish uchun ilmiy-tadqiqotlar olib borilmaganligini, aholining tibbiy madaniyatini qanday usul va vositalar orqali oshirishning “yo‘l xaritasi” ishlab chiqilmaganligini ko‘rsatadi. Ushbu holat mavzuning dolzarbligini ko‘rsatib, muammo sifatida olingan masalalar falsafiy aspektda yoritib berildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq CY-01-son “O‘zbekistonda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashning falsafiy asoslari” nomli tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qishloq aholisining tibbiy madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy falsafiy mohiyatini ochib berish va uni yuksaltirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qishloq aholisining sog‘lom turmush tarzida tibbiy madaniyatning darajasini aniqlash;

qishloq aholisining tibbiy madaniyatida amal qiluvchi qoidalar mexanizmlarini ochib berish;

qishloq aholisining salomatlik va xastalik darajalarini ifodalovchi ma’naviy qadriyatlardan foydalanish mezonlarini ishlab chiqish;

qishloq aholisining tibbiy madaniyati shakllanishi va rivojlanishiga ijobiy hamda salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi obyektiv va subyektiv omillarni aniqlash;

qishloq aholisining tibbiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning yangicha innovatsion g‘oyalarga asoslangan “yo‘l xarita”larini takomillashtirish va sohaga oid taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

¹ Ўсмонхўжаев А., Салиходжаева Р., Ризаев Ш., Абилов Ў, Тўрахонов М. Тиббиёт ходимлари маънавияти. Монография, – Т.: “Янги аср авлоди”, 2014.– 304 б.

² Каримов З., Соғлом турмуш тарзининг миллий репродуктив тараққиётга таъсири. Ф.ф.б.ф.д (PhD) дисс. автореферати. - СамДЧТИ нашр-, 2021. – Б. 21.

Tadqiqotning obyekti qishloq aholisining tibbiy madaniyatini shakllantirish va yuksaltirish masalasi tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti qishloq aholisining tibbiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish tendensiyalarini ijtimoiy-falsafiy aspektida asoslash bilan belgilanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy bilishning obyektivlik va tizimlilik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, sotsial so'rov, umumlashtirish, taqqoslash, tarixiylik va mantiqiylik kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qishloq aholisi tibbiy madaniyatini shakllantirish va yuksaltirishda tarixiy tajriba hamda ilg'or mamlakatlarning potensial imkoniyatlari (moslashuvchi, o'zlashtiruvchi, iste'mol qiluvchi)ga asoslangan yutuqlaridan foydalanish zarurligi mantiqiy dalillangan;

qishloq aholisining tibbiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga oid innovatsion modellar (yangicha tipdagi tibbiy turmush, aqlli tibbiyot, sog'lomlashtirish turizmi) metodologik jihatdan asoslangan;

qishloq aholisi turmush tarzining moddiy va ma'naviy farovonligini ta'minlashda aholi ehtiyojlarini har tomonlama o'sib borayotganligini qondirish miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga o'tish qonuni va dialektik kategoriyalar asosida isbotlangan;

qishloq aholisi tibbiy madaniyatini shakllantirishda ta'lim-tarbiya institutlarining uzluksiz nazorat qiluvchi va muvofiqlashtiruvchi prinsiplarini praktsiologik jihatlarini kuchaytirish zaruriyati asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

dissertatsiyada jamiyat tibbiy hayotining atributi bo'lgan qishloq aholisining tibbiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning mazmuni hamda shakllari, xarakteri va yo'nalishlari aniqlab berilgan bo'lib, bu natijalar aholining tibbiy savodxonlik salohiyati va samaradorligini oshirishda nazariy-metodologik asos vazifasini o'tagan;

ilmiy ishda bugungi kunda qishloq aholisining tibbiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish uchun ularning tibbiy savodxonligini oshirish maqsadida qo'llanilayotgan texnologiyalarning mohiyati va mexanizmi ochib berilgan bo'lib, bu natijalar qishloq aholisini har xil tabiat va jamiyat omillarining salbiy ta'sirlaridan himoyalashga qaratilgan tadbirlarni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqligiga doir taklif tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tadqiqotning asosiy amaliy natijasi qishloq aholisining tibbiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda inson hayoti uchun o'ta xavfli bo'lgan kasalliklarning oldini olishda tibbiy-ma'naviy qadriyatlardan foydalanishga xizmat qiladigan chora-tadbirlar majmuyi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada faqat ilmiy xarakterdagi manbalarga murojaat etilgani, keng aprobatseyadan o'tgan g'oya va nazariyalarga asoslanilgani, fakt va argumentlarni talqin qilishda obyektivlik va tizimlilik prinsiplariga tayanilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar amaliy faoliyatida qo'llab ko'rilgani bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, qishloq aholisining tibbiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning mazmuni va shakllari, sohalari va yo‘nalishlari, sabablari va oqibatlari haqidagi ilmiy tasavvurlarni takomillashtirish, mazkur muammoning turli aspektlarini ilm-fan nuqtayi nazardan tadqiq qilish imkonini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada bayon qilingan takliflardan mavzu doirasida Sog‘liqni saqlash vazirligi, Oliy ta‘lim, Fan va innovatsiyalar vazirligi, Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, ommaviy axborot vositalari, milliy-madaniy markazlar, mahallalar, ta‘lim-tarbiya dargohlari, assotsiatsiyalar va nodavlat-notijorat tashkilotlari faoliyatida, shuningdek, ta‘lim tizimida mavzu bo‘yicha o‘tiladigan fanlardan darslik va o‘quv qo‘llanmalarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qishloq aholisining tibbiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy masalalarini tadqiq etish asosida:

qishloq aholisi tibbiy madaniyatini shakllantirish va yuksaltirishda tarixiy tajriba hamda ilg‘or mamlakatlarning potensial imkoniyatlari (moslashuvchi, o‘zlashtiruvchi, iste‘mol qiluvchi)ga asoslangan yutuqlaridan foydalanish zarurligi mantiqiy dalillanganligiga oid taklif va tavsiyalardan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2022-yilda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturining X yo‘nalishida belgilangan “Mamlakatimizda keng nishonlanadigan bayramlar, tarixiy sanalarni aholi orasida keng targ‘ib qilishga qaratilgan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar tashkil etish” mavzusidagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligining 31 yilligi sanasi munosabati bilan “inson manfaatlari – hamma narsadan ustun” va “Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” nomli 49-bandi ijrosini ta‘minlashda foydalanilgan (Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 13-fevraldagi 44-son ma‘lumotnomasi). Natijada, mamlakatimiz aholisini tibbiy madaniyatini rivojlantirishda, mahalla institutini ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy-axloqiy jihatdan takomillashtirishga xizmat qilgan;

qishloq aholisining tibbiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga oid innovatsion modellar (yangicha tipdagi tibbiy turmush, aqlli tibbiyot, sog‘lomlashtirish turizmi) metodologik jihatdan asoslanganligiga bog‘liq taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining 2020-2024 yillarga mo‘ljallangan Saylovoldi dasturidagi “Ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish, mamlakatda ta‘lim-tarbiya tizimini tubdan isloh etishning ustuvor yo‘nalishlari”ning “Aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, turmush sifatini oshirish sohasida” nomli 4.1 bandi “Jamiyatda oila institutini va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash sohasida” nomli 4.2 bandi ijrosini ta‘minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi Markaziy Kengashining 2023-yil 21-fevraldagi 02/02-07-son ma‘lumotnomasi). Natijada,

mamlakatimiz qishloq aholisining tibbiy hayoti va madaniyatiga amal qiluvchi qoidalar va mexanizmlarini shakllantirish va yuksaltirishga xizmat qilgan;

qishloq aholisi turmush tarzining moddiy va ma'naviy farovonligini ta'minlashda aholi ehtiyojlarini har tomonlama o'sib borayotganligini qondirish miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga o'tish qonuni va dialektik kategoriyalar asosida isbotlanganligiga oid ilmiy asoslangan xulosalar va taklif-tavsiyalardan Jizzax viloyati "Istiqbol" mintaqaviy tadqiqot markazining "Aholi huquqiy madaniyatini yuksaltirishda jamoatchilik ta'sirini oshirishning innovatsion yo'llarini joriy etish" mavzusidagi 68-11/78 raqamli amaliy grant loyihasi ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Jizzax viloyati "Istiqbol" mintaqaviy tadqiqot markazining 2023-yil 22-fevraldagi 8-son ma'lumotnomasi). Natijada, qishloq aholisining tibbiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish borasidagi chora - tadbirlarida, ta'lim tizimida talabalarning tibbiy madaniyatini oshirish borasidagi amaliy ishlarda taklif-tavsiyalar ishlab chiqish masalalarida muhim manba bo'lib xizmat qilgan;

qishloq aholisi tibbiy madaniyatini shakllantirishda ta'lim-tarbiya institutlarining uzluksiz nazorat qiluvchi va muvofiqlashtiruvchi prinsiplarini praktsiologik jihatlarini kuchaytirish zaruriyati asoslanganligiga doir taklif va tavsiyalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasi tomonidan 2022-yilda efirga uzatilgan "Sog'lom hayot sirlari" ko'rsatuvining dastur ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 23-avgustdagi 01-12/305-son ma'lumotnomasi). Natijada, tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy fikr va mulohazalar qishloq aholisining sog'lom turmush tarzi va madaniyatini shakllantirish, inson salomatligini mustahkamlash, umrni uzaytirish, ijtimoiy kasalliklarning oldini olish va davolashdagi tibbiy madaniyatini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 2 ta xalqaro va 12 ta respublika ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola (shundan, 4 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, olti paragrafni o'z ichiga olgan uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 136 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, usullari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi,

amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati tavsiflangan.

Dissertatsiyaning **“Tibbiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishning nazariy-falsafiy masalalari”** deb nomlangan birinchi bobining “Jamiyatning tibbiy hayoti, uning tarkibiy tuzilishi, belgi va xususiyatlari” nomli birinchi paragrafida “jamiyat”, “tibbiyot”, “tibbiyotshunoslik” kabi tushunchalar ilmiy tahlil qilingan holda har qanday jamiyatning tibbiy hayoti real obyektiv borliqning mavjudlik shakli sifatida bor ekanligi isbotlangan. Bunda jamiyatning tibbiy hayoti – bu bioijtimoiy mavjudot bo‘lgan insoniyat olamining sog‘ligini saqlash, umrini uzaytirish, har xil kasalliklarning oldini olish va xastaliklarga qarshi kurashish, kelgusida sog‘lom inson naslini vujudga keltirish va tarbiyalab voyaga etkazish, ularni mehnat kapitalining faol a’zosiga aylantirish uchun faoliyat yuritish orqali uzluksiz tarzda takomillashib boradigan ijtimoiy-tibbiy munosabatlar majmuyiga aytiladi, degan ta’rif berilgan holda, uning xususiyati sifatidagi ontologik asoslarini, birinchi navbatda, bioijtimoiy mavjudot bo‘lgan insoniyat olamining real mavjudligi, ularning jismoniy tana va ma’naviy vujudida amalda sog‘lomlik yoki xastaliklarning bor yoki yo‘q ekanligi, gnoseologik asoslarini esa ana shu jismoniy tana va ma’naviy vujudagi salomatlik yoki xastaliklar darajasini bilishga qaratilgan tibbiy bilish, klinik tafakkur tarzi tashkil qiladi. Aniqrog‘i, o‘zining sog‘ligini anglab yetishga qaratilgan ongi, bilimi, o‘rgangan kitoblari, davolanish haqidagi fikrlari, o‘zgalarga bo‘lgan ma’naviy-axloqiy munosabatlari kiradi deb tavsiflangan. Belgilari sifati bir butunlik, o‘zini-o‘zi tashkillashtirish, dinamiklik, rivojlanish qonuniyatlarga asoslanishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Ikkinchi paragrafi “Salomatlik va kasallik – jamiyat tibbiy hayotining atributi” deb nomlangan bo‘lib, unda Qadimgi va O‘rta asrlarda yashagan Gippokrat, Galen, Abu Ali ibn Sino kabi buyuk mutafakkirlar va XX-XXI asrning Genri Ernst, N.M. Amosov kabi olimlari tomonidan sog‘lik va xastalik haqidagi fikrlari o‘rganilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Eng asosiy vazifalarimizdan: birinchisi – jamiyatimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash bo‘lsa, ikkinchisi – aholimizning sog‘lig‘ini muhofaza qilishdir. Tinchlik va sog‘liq – bu har bir inson, butun xalqimiz uchun hech narsa bilan o‘lchab, baholab bo‘lmaydigan buyuk ne‘matdir”¹,– degan so‘zlarini metodologik asos qilib olgan holda “sog‘lomlik” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan:

1) har qanday insonning biologik mavjudot sifatidagi sog‘lomligi – bu insonning jismoniy tanasidagi barcha organizmlarining tabiat qonunlariga mos ravishda atrof-muhitga moslashuvchanliklari tufayli funksional vazifalarini to‘liq bajarishga qaratilgan harakatlarining muayyan tizimidir;

2) har qanday inson ongli, aqlli o‘ziga xos ruhiy qobiliyatlarga ega bo‘lgan mavjudot sifatida, uning ruhiy-aqliy sog‘lomligi – bu insonga xos bo‘lgan barcha ruhiy jarayonlar silsilasida – sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq, diqqat, hissiyot, iroda, ko‘nikma, malaka va odatlarning normal tarzda o‘zining funksional vazifalarini bajara olish qobiliyatlari tizimidir;

¹Мирзиёев Ш.М. Олий Мажлис Сенатининг Йигирманчи Ялпи Мажлисидаги нутқ // Нияти улў халқнинг иши ҳам улў, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2019. – Б.154 (400 б.)

3) har qanday inson ijtimoiy borliqning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan ijodkor mavjudot sifatida sog'lomlik deb sog'liqni saqlash talablariga to'la javob beradigan tozalik, soflik, beg'uborlik ta'minlangan moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish jarayonida shakllanib, rivojlanib borayotgan mehnatkash odamlarning jismoniy tanasi va aqliy salohiyatining o'zaro uyg'unlashgan holatiga aytiladi, deb ta'riflangan.

Sog'lomlikni fenomen sifatida: birinchidan, tirik organizmlarning makon va zamonda joylashgan o'rniga qarab: o'simliklar va hayvonot olamdagi sog'lomlik; insoniyat, ya'ni katta va kichik yoshdagi odamlardagi sog'lomlikka; ikkinchidan, sohiblariga qarab – individ, shaxs, ijtimoiy guruh, jamoa, aholining sog'lomligi kabi turlarga ajratilib tasniflangan.

Sog'lomlikning zidi xastalik (kasallik) hisoblanadi. Kasallikning kelib chiqishi haqida "Avesto" kitobida: "Kasallik – bu yomon ruhlarning inson tanasiga kirishi oqibatida sodir bo'ladigan ruhiy buzilishdir. Unga to'yib ovqat yemaslik, badxo'rlik, ochko'zlik, bemaza ovqatlarni yeyish, ruhiy tushkunlik, jismoniy charchash yoki har xil yovvoyi hasharotlar va hayvonlarning chaqishi, tishlab olishi kabilar sabab bo'ladi"¹, – deyilgan bo'lsa, qadimgi Xitoy tibbiyotida: "Kasallik – bu odam tanasidagi faol va faol bo'lmagan kuchlar o'rtasidagi kurashda muvozanatning buzilishidir"², – deyilgan. Antik davrning faylasuf tabibi Gippokrat esa odamlar tabiatan to'rt toifaga: sangviniklar – ular umuman kasallikka moyil bo'lmaydi; xoleriklar – o'tkir kasalliklar bilan kasallanadi; flegmatiklar – ko'proq o'pka va ichaklar yallig'lanishi kasalliklariga chalinadi; melanxoliklar – o'tkir xastaliklar, og'iz-burun shamollashi, o'pka va ichaklar yallig'lanishi kabi kasalliklar bilan og'riydilar³,– degan fikrlarni bayon qilgan. Bu masalaga falsafiy jihatdan jiddiy yondashgan buyuk faylasuf-tabib Abu Ali ibn Sino tibbiyot ilmida tub burilish yasar ekan, kasallik va uning paydo bo'lish sabablari haqida: "Biz aytamiz: tib haqidagi kitoblarda sabab deb oldin paydo bo'ladigan va odam gavdasida qandaydir bir holatni keltirib chiqaruvchi yoki bu holatni turg'unligicha saqlab turuvchi [narsaga] aytiladi".

Yuqorida keltirilgan ta'rif va tavsiflarning falsafiy tahlilidan kelib chiqqan holda, kasalliklarni quyidagi asosiy xususiyatlariga ko'ra ta'riflash va tavsiflash mumkin, deb hisoblaymiz.

1. Kasallikning rivojlanishida tashqi tabiiy muhit, ya'ni ko'proq biologik omillar yetakchi rol o'ynaydi. Chunki, insonning xastalanishida, inson organizmining ichki xususiyatlari tabiat (atrof-muhit) omillari ta'sirida yuzaga keladigan va mahkam o'rnashib (shu qatorda irsiy mexanizmlar bilan) oladigan o'zgarishlar kasallikning boshlanishida yetakchi rol o'ynashi mumkin. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, kasallik deb insonning jismoniy tanasidagi barcha organizmlarining tabiat muhitiga moslasha olmaganligi tufayli o'zining funksional

¹Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Аскар Маҳкам таржимаси. – Т.: "Шарқ", 2001. – Б.136

² Казаченко В.И..Петленко В.П. История философии и медицина. – СПб, 1994. – С.112.

³Жак Ж. Гиппократ. / Пер. с фр. (Серия "След в истории"). Ростов-на-Дону: Феникс. 1997. – С.236. (457 с.) Темперамент // Большая медицинская энциклопедия / Гл. ред. Б. В. Петровский. - 3-е изд. – М.: Советская энциклопедия, 1985. - Т. XXIV (Сосудистый шов - Тениоз). – С. 536-537. Гиппократ

vazifalarini to'liq bajarish uchun imkoniyatining cheklanganlik darajalariga aytiladi.

2. Kasallikning rivojlanishida ruhiy-fiziologik sezgi, idrok, xotira, xayol, diqqat, tafakkur, nutq, hissiyot, iroda, ko'nikma, malaka, odat, temperament, qobiliyat kabi psixofiziologik xususiyatlarning funksional vazifalarini qanchalik darajada bajarishi, ya'ni organizmning himoya va moslashuvchan mexanizmlari katta ahamiyatga ega. Kasallikning rivojlanishi ko'p jihatdan ushbu mexanizmlarning takomillashishiga, ularning patologik jarayonga qo'shilish hajmi va tezligiga bog'liq. Zero, shunday ekan, odamlarda kasallikning rivojlanishiga psixogen omillar katta ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra, kasallik (ruhiy xastalik) deb insonga xos bo'lgan ruhiy xususiyatlardan sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq, diqqat, hissiyot, iroda, ko'nikma, malaka va odatlardan birining yetarli darajada funksional vazifalarini bajara ololmasligi tufayli kelib chiqadigan ruhiy anomaliyalarni o'zida mujassamlashtirgan kishilarning qobiliyat darajalariga aytiladi.

3. Kasallik – bu faqat tashqi tabiatning salbiy ta'siri yoki odam ruhiyatidagi buzilishlarigina emas, u ayni vaqtda iqtisodiy shart-sharoitlardan tashkil topgan ijtimoiy muhit tomonidan kelib chiqadigan salbiy oqibatlarining ham mahsulidir. Shunga ko'ra, kasallik deb insonning yashashini ta'minlovchi moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish jarayonida mehnat qilishi uchun yetarli darajada yaratilmagan tabiiy, ruhiy va ijtimoiy muhit ta'sirida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimidagi nomutanositliklar tufayli turli xil kasalliklarga chalingan odam nasliga aytiladi.

Uchinchi paragrafi "Tibbiy madaniyat: ta'rifi, tasnifi va omillari" deb nomlangan bo'lib, tibbiy madaniyatning paydo bo'lishi antropologik jihatdan tadqiq qilingan holda, birinchidan, jamiyatda kasallikka chalingan odamlarning mavjudligi; ikkinchidan, kasallikka chalingan odamlarni davolash zarurligi; uchinchidan, kasalni davolash uchun zarur bo'lgan mablag'larni qidirib topish kerakligi; to'rtinchidan, kasallik tufayli og'ir azob-uqubatlarga duchor bo'lgan bemorga nisbatan qarindoshlarining mehr-muhabbat tuyg'usining shakllanganligi; beshinchidan, bemorning tuzalib ketishga bo'lgan ishonchining barqaror yoki beqarorligi; oltinchidan, bemorga nisbatan jamiyat tomonidan yaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy muhitning ijobiy yoki salbiy ta'siri kabilar sabab bo'lganligi ko'rsatib berilgan.

Tibbiy madaniyat sohiblari, ya'ni tashuvchilariga ko'ra quyidagi:

1) kasbiy tibbiy madaniyat; 2) jamoaviy tibbiy madaniyat; 3) kundalik tibbiy madaniyat; 4) individual tibbiy madaniyat kabi tur va shakllarga ajratib tadqiq qilingan. Bunda kasbiy tibbiy madaniyat deb inson salomatligi va hayotini saqlab qolish uchun bevosita mas'ul bo'lgan tibbiyot xodimlarining tibbiy bilimlari, nazariy-falsafiy qarashlari, tibbiyotning texnologik uskunalari yordamida tashxis qo'yish va davolash amaliyotlarini bajarish, aholining barcha tabaqalari o'rtasida tibbiy bilimlarni targ'ib va tashviq qilish orqali tibbiyot ilmining kuch-qudrati, davlat tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlar va islohotlarga nisbatan xalq ongida ishonch tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan nazariy-amaliy, axloqiy-

ma'naviy, ma'rifiy-madaniy saviyalarini o'zida mujassamlashtirgan qobiliyatlari tizimiga aytiladi; jamoaviy tibbiy madaniyat – bu maqsad, qiziqish va faoliyat mushtarakligi asosida biron bir xastalikni davolash, joylardagi tibbiy vaziyatni yaxshilash uchun birlashgan va muayyan barqarorlikka ega bo'lgan kishilar uyushmasidir; kundalik - oddiy tibbiy madaniyat – individ, shaxs, jamoalarning sog'ligini saqlashdagi faoliyatini tartibga solish borasida hali to'la shakllanmagan, chala bo'lgan ilmiy bilim, xalq tabobatining an'anaga aylangan andozalari, diniy bid'at, ijtimoiy-madaniy afsona va an'analar, ijtimoiy, huquqiy, diniy normalar kabilarni o'z ichiga olgan bilimlarga asoslangan xatti-harakatlaridir; individual tibbiy madaniyat – bu har bir individning turli xil kasalliklarni davolash va oldini olish haqidagi bilimlarni, kasal odam haqida qayg'urish, sog'liqni tiklash va saqlash sohasidagi xulq-atvorini boshqarishga xizmat qiluvchi ijtimoiy, axloqiy, huquqiy va boshqa normalardan tashkil topgan qarashlarga asoslangan o'zining sog'ligini saqlashga qaratilgan faoliyatidir, degan ta'riflar berilgan.

Zamonaviy kasbiy tibbiyot madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari - bu tibbiyot xodimlari faoliyatining kompyuterlashtirilishi va axborotlashtirilishidir. Jamiyat tibbiy hayotining hozirgi rivojlanish bosqichida kasbiy tibbiyot madaniyatini shakllantirishning “dalillarga asoslangan tibbiyot” deb nomlangan yangi falsafiy paradigmasi qabul qilindi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad bemorlarni davolashda kasbiy xatolar darajasini kamaytirish va tibbiy yordam sifatini oshirishdan iboratdir. Tibbiyotdagi bu falsafiy paradigma har bir bemorning malakali tibbiy yordam olishini ta'minlash, eng zamonaviy davolash vosita va usullaridan foydalanish orqali kasallikni tasdiqlangan ishonchli dalillar asosida davolash chora-tadbirlarini qo'llash pirovardida qisqa muddat ichida bemorni tuzatib hayot quchog'iga qaytarishga qaratilgan gumanistik tibbiy-falsafiy metodologiyaga asoslangan qarashlar tizimidir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Tabiatda kechayotgan sinergetik jarayonlarning qishloq aholisining tibbiy madaniyati rivojiga ta'sir etish qonuniyatlari”** deb nomlangan bo'lib, uning birinchi paragrafi “Tabiatda kechayotgan sinergetik jarayonlarning qishloq aholisi tibbiy madaniyati rivojiga ta'sir etish qonuniyatlari” deb nomlangan paragrafida tabiat borlig'ida sodir bo'layotgan jarayonlar nafaqat dialektik, balki sinergetik tarzda kechishi ta'kidlangan holda, bunda “Havo muhitida kechayotgan sinergetik jarayonlarning qishloq aholisi tibbiy madaniyati rivojiga ta'siri qonuni” va “Suvdan foydalanishda kechayotgan sinergetik jarayonlarning qishloq aholisining tibbiy madaniyati rivojiga ta'siri qonuni”, “Tuproq tarkibida kechayotgan sinergetik jarayonlarning qishloq aholisi tibbiy madaniyatining shakllanishi va rivojlanishiga faol ta'sir etishi qonuni” sinergetika qonunlari sifatida atroflicha tahlil qilinib, undan quyidagi xulosalar chiqarilgan:

1. O'zbekistonda qishloq aholisi bevosita tabiat quchog'ida yashaydi va undagi o'zgarishlarni birinchi bo'lib his etadi. Ana shu his uning o'z sog'ligini saqlash uchun azaldan shakllangan ma'lum tibbiy qadriyatlar mavjud oddiy tibbiy tafakkur qilish shakliga ko'ra harakat qilishiga undaydi. Shunga ko'ra, uning ongida dastlabki tibbiy madaniyat elementlari paydo bo'ladi.

2. Qishloq aholisi tibbiy madaniyatining shakllanishi va rivojlanishiga tabiat borlig'ida sinergetik tarzda kechayotgan jarayonlar, birinchi navbatda, kislorod, suv, tuproq, so'ngra boshqalar o'z ta'sirini o'tkazadi. Bularning mohiyatini bilmasdan turib, tibbiy madaniyatni yetarli darajada shakllantirib ham, rivojlantirib ham bo'lmaydi.

3. Qishloq aholisining tibbiy madaniyati bevosita tabiat omillari ta'sirida kelib chiqadigan kasalliklar, ularni davolash jarayonlarininggina emas, balki butun insonning, jamiyatning barcha hayot jabhalarini qamrab oluvchi umuminsoniy, milliy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ikkinchi paragrafi "Qishloqdagi moddiy ishlab chiqarish jarayoni subyektlari tibbiy madaniyatining rivojlanish tendensiyalari" deb nomlangan bo'lib, bu paragrafda O'zbekistonda qishloq xo'jaligi jamiyatdagi moddiy ishlab chiqarish jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida ikkita: o'simlik mahsulotlari, ya'ni paxta, g'alla, sabzavot, meva, poliz va hokazo yetishtirishga ixtisoslashgan bo'lib, asosan mamlakat aholisining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish bilan shug'ullanadigan dehqonchilik, chorvachilik mahsulotlari, ya'ni go'sht, sut, tuxum, asal, yog' va hokazolarni yetishtirishga ixtisoslashgan qoramolchilik, qo'ychilik, parrandachilik, asalarichilik kabi sohalar orqali aholining shunday mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish bilan shug'ullanadi.

Qishloq xo'jaligida moddiy ishlab chiqarish bilan shug'ullanayotgan subyektlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirish tendensiyali xarakterga ega bo'lgan ikkita yo'nalish bo'yicha falsafiy jihatdan tadqiq qilingan. Birinchi tendensiya. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish bilan shug'ullanayotgan subyektlarning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ya'ni ekin ekish, yerga ishlov berish, o'g'itlash, sug'orish, ko'chatlarni payvandlash, hosilni saqlab qolish uchun turli xil ximikatlardan foydalanish, texnik va texnologik vositalarni qo'llash kabi ishlarni bajarishda amal qilinishi lozim bo'lgan individual, jamoaviy tibbiy madaniyatining qanchalik shakllanganligi va rivojlanganligi bilan tavsiflanadi. Ikkinchi tendensiya. Bu qishloq xo'jaligi sohasida moddiy ishlab chiqarish bilan shug'ullanayotgan subyektlarning qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni saqlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan tibbiy madaniyatining shakllanib va rivojlanib borishini o'z ichiga oladi. Demak, birinchi tendensiyada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun zarur bo'lgan omillar: yerni shudgorlash, tekislash, ekin ekish uchun urug'larni saralash, hosilni yig'ib olish jarayonida bo'ladigan ishlarni bajarish vaqtida inson salomatligini saqlash bo'yicha olib boriladigan ishlarning majmuasi, mantiqiy jamlanmasi sifatidagi tibbiy madaniyat shaklida o'zini namoyon qilsa, ikkinchi tendensiyada esa shu sohada xizmat qilayotgan subyektlar tomonidan hosilni yig'ish, saqlash va iste'mol qilish jarayonida inson salomatligini saqlash borasida yuzaga kelgan harakatlarning hosilasi bo'lgan tibbiy madaniyatning shakllanish va rivojlanishini ta'minlovchi omillarning yo'nalishlarini o'zida ifodalashi bilan xarakterlanadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Qishloq aholisining tibbiy madaniyatini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari**" deb nomlangan bo'lib, uning

“Zaharli modda va parazitlarning qishloq aholisi tibbiy madaniyatiga ta’siri va ularni bartaraf etishning innovatsion biologik usullari” deb nomlangan birinchi paragrafida qishloq xo’jaligida ishlatiladigan zararli moddalar “pestitsidlar — o’simlik zararkunandalari, kasalliklari va begona o’tlarga qarshi kurashda ishlatiladigan kimyoviy moddalar, shuningdek, qishloq xo’jalik o’simliklari rivojining regulyatorlari va defoliantlari”¹ bo’lib, ularga: akarisidlar — o’simlik kanalarini yo’qotishda qo’llaniladigan; bakterisidlar — bakteriyalarga va bakteriyalardan kasallangan o’simliklarga qarshi ishlatiladigan; gerbitsidlar - yovvoyi o’tlarga qarshi ishlatiladigan; defoliantlar — g’o’za barglarini sun’iy to’ktiradigan; insektisidlar — qishloq xo’jaligida va ro’zg’orda uchraydigan hasharotlarni o’ldiradigan va boshqa shunga o’xshash zaharli kimyoviy birikmalar kirishi ko’rsatib o’tilgan. Ularning kishi organizmini nafas yo’llari, me’da va ichaklar, jarohatlanmagan teri orqali kirib, zaharlashi bayon qilingan. Ayniqsa, zaharning ona suti orqali go’dak organizmiga o’tishini hisobga olsak, jismonan nogiron, aqlan zaif bolalarning paydo bo’lishiga olib kelishi, shuning uchun ham bolali ayollarni zaharli kimyoviy birikmalar bilan ishlashlariga yo’l qo’yib bo’lmasligi uqtirilgan.

Qishloq xo’jaligida qo’llaniladigan zaharli kimyoviy birikmalar fauna va florani nobud qiladi, atrof-muhitni ifloslantiradi. Buning oldini olish uchun qishloq xo’jalik zararkunandalarga qarshi kurashishning innovatsion-biologik usulini qo’llashga harakat qilinmoqda. Bunda o’simliklarni himoya qilishning biologik vositalari jumlasiga o’simlik zararkunandalari, kasalliklariga va begona o’tlarga qarshi kurashda ishlatiladigan tabiiy organizmlarga aynan o’xshash biologik moddalar, sun’iy ravishda yaratilgan mavjudotlar-entomofaglar, trixogrammalar, gabrobrakonlar, oltinko’zlar va boshqa genetik yetishtirilgan o’simlik, yoki organizmlar kirishi aytilgan bo’lib, bunday innovatsion biologik usulni qo’llashning mazmun-mohiyati: birinchidan, tuproq, suv va havoni zaharli moddalar bilan iflos qilishning oldini olish; ikkinchidan, dalada ishlovchilarning sog’ligiga katta zarar yetkazmaslik; uchinchidan, hosilni yetishtirishda qilinadigan sarf-xarajatlarni iqtisod qilish; to’rtinchidan, ekologik muhitni yaxshilash orqali qishloqni eng toza, inson dam oladigan ekoturizm makoniga aylantirish bilan ifodalanishi ko’rsatib berilgan.

“Qishloq aholisining tibbiy madaniyati rivojiga ta’sir etuvchi buzg’unchi g’oyalar va ularning oldini olish chora-tadbirlari” deb nomlangan ikkinchi paragrafida jinsiy hayotni buzib talqin qilish, uni inson hayotining asosiy mazmuni sifatida qarash borasida bildirilayotgan har xil g’oyalar falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Bunda jinsiy hayot — bu asosan erkak bilan ayol o’rtasida avlodini davom ettirishga xizmat qiluvchi jismoniy, ruhiy, axloqiy yaqinlikdan iborat bo’lgan munosabatlaridan tashkil topgan ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar tizimidir. Jinsiy hayotning ontologik tomoni, uning tarixiy makon va zamonda biron-bir individ,

¹Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. “Қишлоқ хўжалик ўсимликларини зараркунандалар, касалликлар ва бегона ўтлардан химоя қилиш тўғрисида”. 2000 йил 31 август, 116-II-сон // (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2000 й., 7-8-сон, 208-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 50-сон, 588-модда; 2017 й., 37-сон, 978-модда

shaxs, elat va millat, xalqlarning irodasidan qat'iy nazar avlodlarni ko'paytirishning tayanch nuqtasi sifatida jinslar o'rtasida sodir bo'ladigan intim jarayonlardan tashkil topgan bioijtimoiy borliq; jinsiy hayotning gnoseologik tomonini esa o'z navbatida jinslar o'rtasidagi intim munosabatlarda ishtirok etuvchi har bir a'zolarining o'ziga xos bo'lgan tuzilishlari, ularda sodir bo'ladigan jarayonlar, ular tufayli kelib chiqadigan oqibatlar haqidagi to'plangan tajribalardan hosil bo'lgan tibbiy bilimlarning mavjud ekanligi bilan ifodalanadi. Jinsiy hayotning akseologik tomoni bir tomondan ijtimoiy, ya'ni oila qurib, farzandli bo'lish, ikkinchi tomondan, milliy, ya'ni milliy jinsiy – odob va axloq qoidalariga amal qilish kabilar bilan xarakterlansa, uning badiiy-madaniy tomoni bevosita san'at asarlarida ifodalanishida ko'rinadi.

Jinsiy hayotga va unga aloqador bo'lgan narsalar, munosabatlar insonning hayotida katta ahamiyat kasb etadi. Uning ana shu tomonini qurol qilib olgan kimsalar, uni inson hayotini belgilab beradigan asosiy omil deb isbotlashga harakat qilmoqdalar.

